

Ro'yxatga olindi:
№ BD 10
2025-yil 29 avgust



Bilim sohasi:	100000 - Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi GMMT404		O'quv yili 2025-2026	Semestr 8	Kreditlar 4	
Fan/mavzu turi Tanlov fan		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geografiyadan masala va mashqlar		60 (30/30)	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Ushbu o'quv dasturi talabalarda geografiya faniga oid zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, geografik mashq va masalalarni yechish, turli miqyosdagi xaritalar bilan ishlash, raqamli va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, tabiat hodisalarini kuzatish va ularning geografik omillar bilan bog'liqligini aniqlash kabi amaliy faoliyatlar orqali o'quvchilarda fanga doir asosiy kompetensiyalar rivojlantiriladi. Dasturda nazariy bilimlar amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlanib, talabalarning tahliliy fikrlash, muammo yechish, kuzatish, xulosa chiqarish va ilmiy asosda fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-Modul. Tabiiy geografiyadan masala va mashqlar yechish</p> <p style="text-align: center;">Joy plani va geografik xaritalar mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish</p> <p>Yo'nalish azimuti va uni aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Balandlikka ko'tarilgan sari ufq chegarasining kengayishiga doir amaliy topshiriqlar, masshtab va uning yordamida masofani aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Topografik shartli belgilar, Nuqtaning geografik kengligi va uzunligini aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Daraja to'ri, Geografik koordinatalar, Ko'z bilan chamalab masofani aniqlash.</p> <p style="text-align: center;">Litosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish</p> <p>Yerning ichki qismiga tushgan sari haroratning o'zgarishiga doir amaliy topshiriqlar, Neytral qatlam, Yer qobiqlari.</p> <p style="text-align: center;">Gidrosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish</p> <p>Okean, dengiz va ko'llarning chuqurligini aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Okean suvining sho'rli va haroratini aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Daryolar (nishabligi, suv sarfi va daryo tarmoqlari zichligini aniqlash) mavzusiga doir amaliy topshiriqlar.</p> <p style="text-align: center;">Atmosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish</p> <p>Havo harorati va atmosfera bosimini aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Shamollar va shamol guli, Havoning namligi va namlik koeffitsiyentini hisoblashga doir amaliy topshiriqlar, Yog'inlar va ularning miqdorini aniqlashga doir amaliy topshiriqlar.</p> <p style="text-align: center;">Soat mintaqalari va Quyoshning ufqdan balandligini aniqlash mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish</p> <p>Mahalliy vaqt va mintaq vaqti, Nuqtalar o'rtasidagi vaqt farqini aniqlashga doir amaliy topshiriqlar, Dunyo vaqti, Soat mintaqalari mavzusiga doir amaliy topshiriqlar. Yilning turli vaqtlarida quyoshning ufqdan balandligini aniqlash bo'yicha amaliy topshiriqlar.</p> <p style="text-align: center;">2-Modul: Ijtimoiy va iqtisodiy geografiyadan masala va mashqlar yechish</p> <p style="text-align: center;">Aholi geografiyasidan masala va mashqlar yechish</p>				

Aholi kategoriyalari, Demografik ko'rsatkichlar, Aholi soni va dinamikasi, Aholining takror barpo bo'lishi, Aholi tarkibi va uning ko'rsatkichlarini aniqlash, Aholi joylashuvi va zichligini aniqlash, Urbanizatsiya va uning ko'rsatkichlari, Aholi migratsiyasi va uning ko'rsatkichlari, Mehnat resurslariga oid ko'rsatkichlarni ifodalash, Aholi sonini prognoz qilish.

Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasidan masala va mashqlar yechish

Sanoatning tarmoq tarkibini hisoblash, Ishlab chiqarishni tashkil etishga ta'sir etuvchi yetakchi omilni aniqlash, Sanoatning taraqqiyot darajasini aniqlash, Sanoatning hududiy mujassamlashuv darajasini aniqlash, Yoqilg'i sanoati, Elektr-energetika sanoati, Metallurgiya sanoati, Mashinasozlik sanoati, Kimyo sanoati, Qishloq xo'jaligi tarmoq tarkibini aniqlash, Dehqonchilikka oid ayrim hisoblashlarni bajarish, Chorvachilik va uning tarmoqlari.

Transport va xizmat ko'rsatish geografiyasidan masala va mashqlar yechish

Transport tarmoqlari bo'yicha yuk tashish aylanmasini hisoblash, Transport tarmoqlari bo'yicha yo'lovchi tashish aylanmasini hisoblash, Temiryo'llar zichligini hisoblash, Transport yo'li(avtomobil yo'llari)ning uzunligi misolida "hududiylik koeffitsiyenti"ni aniqlash, Muassasalarning xizmat ko'rsatish radiusini aniqlash, Muassasaga ega bo'lgan aholi punktlarining o'rtacha xizmat ko'rsatish radiusini aniqlash, Muassasaga ega bo'lmagan aholi punktidan xizmat ko'rsatish markazigacha bo'lgan o'rtacha masofani aniqlas

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Joy plani va geografik xaritalar mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish
2. Litosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish
3. Gidrosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish
4. Atmosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish
5. Soat mintaqalari mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish
6. Quyoshning ufqdan balandligini aniqlash mavzusi bo'yicha masala va mashqlar yechish
7. Aholi geografiyasidan masala va mashqlar yechish
8. Sanoat geografiyasidan masala va mashqlar yechish
9. Qishloq xo'jaligi geografiyasidan masala va mashqlar yechish
10. Transport geografiyasidan masala va mashqlar yechish
11. Xizmat ko'rsatish geografiyasidan masala va mashqlar yechish

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- SWOT tahlili;
- Taqdimot tayyorlash;
- Maruza tayyorlash;
- rasmlar topshiriq tuzish;
- Mo'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videodars tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> - Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish; - Audio dars tayyorlash; - Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish; - SWOT tahlili; - So'rovnoma o'tkazish; <p style="text-align: center;">Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Joy plani va geografik xaritalar mavzusi bo'yicha masala va mashqlar tuzish 2. Litosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar tuzish 3. Gidrosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar tuzish 4. Atmosfera mavzusi bo'yicha masala va mashqlar tuzish 5. Soat mintaqalari va Quyoshning ufqdan balandligini mavzusi bo'yicha masala va mashqlar tuzish 6. Aholi geografiyasidan masala va mashqlar tuzish 7. Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasidan masala va mashqlar tuzish 8. Transport va xizmat ko'rsatish geografiyasidan masala va mashqlar tuzish
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Geografiyadan masala va mashqlar fanining asosiy vazifasi – talabalarda nazariy bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash va amaliy-geografik malakalarni shakllantirishdir. Talabalar geografik masalalarni yechish, xarita bilan ishlash, statistik va raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish, masofalar va maydonlarni hisoblash, tabiiy va ijtimoiy hodisalarni baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.</p> <p>Shuningdek, bu fan orqali xaritalarda fazoviy tahlil olib borish, grafik va diagrammalar bilan ishlash, GIS va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish malakalari rivojlanadi. Natijada talabalar mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish kompetensiyalarini shakllantiradilar</p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>ma'ruzalar;</i> • <i>interfaol keys-stadilar;</i> • <i>diologik yondoshuv</i> • <i>SWOT tahlili</i> • <i>Wenn diagrammasi</i> • <i>debat</i> • <i>assiment</i> • <i>baliq skleti</i> • <i>kim chaqqon</i> • <i>kim oshdi</i> • <i>blis test va boshqalar</i>
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdunazarov O.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. Umumiy tabiiy geografiya. – Toshkent, Barkamol fayz media nashriyoti. 2018. 2. Abdimurotov O.U. Geografiyadan masala va mashqlar. Toshkent. “Malik Print” 2021. 3. Q.Bahromov, G.Halimova «Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari», “Navro'z” nashriyoti, Toshkent – 2017 4. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya: Masalalar to'plami// Uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2019. -156 b.

	<p style="text-align: center;">IX. Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Baratov P., Sultanova N. Umumiy tabiiy geografiya. T.: “Info Capital Group”, 2019. 2. Ibragimova R.A., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. Toshkent: «Barkamol fayz media», 2017. 3. Safarova N.I. va b. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: T.: Mahalla va Oila, 2022. 4. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. T.: “Kamalak”. 2013. 5. Ulug‘murodov E.B., Juraxujayev D.D., Mirzaliyev S.R., Qosimov N.D.. Umumiy tabiiy geografiya (amaliy mashg‘ulotlar) // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, – “ACCESS SERVICE” nashriyoti, 2025-y. – 180 bet. 6. Vahobov H. va boshqalar. Umumiy tabiiy geografiya. T.: «Bilim» 2005. 7. Maktab o‘quv atlaslari 7-10 sinflar. <p style="text-align: center;">O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.edu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti 2. http://www.uzedu.uz - O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali. 4. https://unilibrary.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi 5. https://library.uzfi.uz/ - Samarqand davlat pedagogika instituti elektron kutubxona axborot tizimi 6. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar telegram kanali
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil “ ____ ” _____ -son bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:</p> <p>D.D.Juraxujayev - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrası assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>B.M.Musayev - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrası dotsenti v.b. (ichki)</p> <p>A.X.Ravshanov – Sh.Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti dotsenti (tashqi)</p>

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98-o‘rinni egallagan Moskva davlat universitetning

Geografiya fakulteti, Geografiya yo'nalishi (Введение в физическую географию с основами землеведения, Климатология с основами метеорологии, Гидрология, Топография, Картография, География населения с основами демографии) dasturlari tahlil qilinib, mazkur fan dasturining bir qator mavzulari mazmuniga singdirildi.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Vvedenie_v_fizicheskuyu_geografiyu_2021.pdf

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_klimatologia_2021.pdf

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Gidrologiya_2021.pdf

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Topografiya_new2023.pdf

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_K_kig_Kartografiya_new_2022.pdf

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_an_geografia_naseleniya_s_osnovami_demografii_3++.pdf

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 23-apreldagi №2 sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

D.D.Juraxujayev

Kafedra mudiri:

E.A.Xamroyeva

Fakultet dekani:

U.N.Mirzayev

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor

N.H.Musulmonov



Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrası assistenti D.D.Juraxujayev tomonidan
tayyorlangan “Geografiyadan masala va mashqlar” o‘quv fan dasturiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta‘limni tashkil etish, kasbga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, uni mustahkam egallash va nazariy bilimlarning amaliyot bilan keng bog‘liqligini ta‘minlash, ma‘naviy barkamol hamda intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilishda fanlar kesimida ilmiy asoslangan, zamonaviy darsliklarni yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur o‘quv dasturida geografiya fanining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriq va mashqlar tizimi aniq belgilangan. Dasturda geografik masalalar orqali bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, matematik va statistik usullardan foydalanish, xarita bilan ishlash, grafik va jadval tahlili kabi faoliyat turlari izchil yoritilgan.

O‘quv dasturining afzallik jihatlaridan biri shundaki, unda har bir bo‘limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va bosqichma-bosqichlik tamoyili inobatga olingan. Masalalar tizimi oddiydan murakkabga qarab tuzilgan bo‘lib, ularning mazmuni geografik qonuniyatlarni ochib berishga, hududiy tafakkurni kengaytirishga va tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quv dasturida masalalar orqali ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa fanlararo integratsiyani ta‘minlash, o‘quvchilarni hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta‘lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturini nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Samarqand davlat pedagogika
instituti Geografiya kafedrası
v.b. dotsenti:



PhD. B.M.Musayev

Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrası assistenti D.D.Juraxujayev tomonidan tayyorlangan
“Geografiyadan masala va mashqlar” o‘quv fan dasturiga
TAQRIZ

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, o‘quv jarayoniga ilg‘or tajribalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, talabalar tafakkurini rivojlantirish va ularni ijodkorlikka yo‘naltiruvchi o‘quv dasturlarining yaratilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Taqdim etilgan o‘quv dasturida geografiya fanining nazariy asoslarini chuqurlashtirish bilan birga, talabalar amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlar tizimi keng yoritilgan. Jumladan, geografik masalalarni yechishda matematik va statistik usullardan foydalanish, xaritalar bilan ishlash, jadval va grafiklarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha izchil yondashuv ko‘zga tashlanadi.

Dasturda masalalar murakkablik darajasiga ko‘ra oddiydan murakkabga qarab tuzilgan bo‘lib, bu talabalar bilimlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mazmundagi masalalarning kiritilgani o‘quvchilarni real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv fanlararo integratsiyani ta‘minlaydi hamda talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Mazkur dastur amaldagi malaka talablari hamda o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi, ta’lim jarayonida qo‘llash uchun uslubiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan. Shuning uchun “Geografiyadan masala va mashqlar” fani bo‘yicha yaratilgan ushbu dastur nashr etishga tavsiya etiladi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dotsenti:



A.X.Ravshanov